

## G'AFUR G'ULOM IJODIDA GENDER TENGLIGI MASALALARI

*Laylo Baxromova Rayim qizi*  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ommaviy huquq fakulteti 2 kurs  
E-mail: laylorayimovna@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada G'afur G'ulomning "Netay" qissasidagi hayotiy voqealar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, yozuvchining jamiyatda ayollarning o'rni qanday bo'lishi kerakligi haqidagi qarashlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender tengsizlik, hayotiy tajriba, Netay, Semiyon.

G'afur G'ulomning «Netay» qissasida asosiy voqealar boshlanishidan oldin yozuvchi uzundan-uzoq lirik kirishlar qilib, o'sha zamon to'g'risida, qahramonlar yashayotgan muhit haqida, fohishaxona va undagi ayollarning ayanchli hayoti xususida o'z mulohazalarini bayon etadi. Bunday lirik kirishlar asar voqealari bilan mantiqan bog'langan bo'lib, Netay qiz taqdirini hal etishda, uning taqdiri fojiali tus olishida shu muhitning ta'siri katta bo'lganini ta'kidlashga xizmat qiladi. Qisqasi davr va muhit haqidagi qissadagi fikr-mulohazalar Netayni kutayotgan hayot kartinasi desak mubolog'ali bo'lmaydi. Ushbu qissani barcha yosh toifadagi insonlar o'qishi va fikr-mulohaza qilishi mumkin. Sababi qissa juda sodda tilda yozilgan bo'lib, doimiy tarzda muammo bo'lib kelayotgan qizlar masalasi ochilib berilgan. Asardagi gender tengsizlik, qizlarning achinarli hayoti va fuqarolarning, erkaklarning ushbu holatni ko'rib turib, o'zlarini ko'rmaslikka olishlari, eng nafratlisi, shu ishlarga bosh-qosh bo'lganliklari uchun ham asar kitobxonlar o'qishi uchun juda ahamiyatlidir. Birma-bir bayon qiladigan bo'lsak, "Netay" qissasida himoyasiz yosh qiz Toshkentda bir kecha mehmon bo'lgan Amir Olimxonga tortiq qilinadi. Bu degani nima degani, bilasizmi, ayollarning hurmati, sha'ni bir tiyinga qimmatsiz ekanligining yorqin dalilidir. Nahotki, qizlarning hayoti, sha'ni shunday darajaga tushib qolganki, ular bilan hisoblashadigan, himoya qiladigan bir mard topilmasa dunyoda? Buning sabablaridan biri sifatida biz ijtimoiy davrni bosh qahramon taqdirining fojiali bo'lishiga olib kelganligini aytishimiz mumkin. Qissada yozuvchi inson va jamiyat munosabatlari masalasini ancha keng yoritadi. U har qanday notinchlikni qattiq qoralab, «Otalar o'g'illarini, onalar qizlarini tanimagan bir musibat kunlar» da ham chin insoniy fazilatlar saqlanib qolishi va otalik hissining qadrdon va lazzatli tuyg'ulari zinhor millat tanlamasligiga diqqat qaratadi. G'afur G'ulom ham ishratxona hayoti, fahsh dunyo tasviri orqali insoniylikni oyoqosti qiluvchi razil odamlarni ko'rsatadi. Sargardonlik tufayli Qo'qon ko'chalarida tentirab yurgan yetim qiz Netay bir burda non ilinjida odamlar qo'liga qaraydi. Biroq «Xudo bersin», - degan kalomdan

boshqasini eshitmaydi. Hatto unga ayrimlar vahshiy niyat bilan nazar soladilar. Mana shunday vaziyatlarda Netayni ko'rib qolib, o'zining farzandi kabi ulg'aytirgan befarzand, farzandlaridan judo bo'lgan Semyon uni o'z qaramog'iغا oladi. Bu otaning farzandga bo'lgan mehri, shafqati, muhabbat, ardog'i edi. Taassufki, bu go'zal tuyg'ularni Samad, Saidrahimboy, Valixo'ja boylar to'g'ri tushunmaydilar. Natijada Netayning taqdirini tashqi muhit tomonidan yaratilgan vaziyat hal qilib, johil, nafs iskanjasidagi kishilar masalani zo'rlik va zulm bilan hal qiladilar. Mansabparastlik, ta'magirlilik, shafqatsizlik, nafs iskanjasidagi intilishlar qizning taqdirini fojiali yakunlanishiga olib keladi va u fohishaxonaga tashlanadi.

**Xulosa:**

G'afur G'ulom ushbu asari orqali inson farzandining haq-huquqsizligi qattiq qoralagan. Mana shunday achinarli vaziyatlarni qalamga olgan adibimizning ushbu asarlarini biz o'qib, ayollar huquqlarini yanada ko'proq himoya qilinish choralarini ko'rishimiz lozim. Unutmang, dunyoda hech narsa javobsiz qolmaydi. Hamma narsaning o'z vaqt va javobi bor.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. Toshkent, „Fan“, 1963.[1]
2. Akbarov A. Gafur Gulyam. Toshkent: „Yosh gvardiya“, 1974.[2]
3. Sharafiddinov O. Xalq baxtining otashin kuychisi.[3]
4. G'afur G'ulom. Asarlar, 10 tom, Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 180-229.[4]